

YOSHLAR KUNI MUNOSABATI BILAN BOKSCHILAR BILAN UCHRASHUV O‘TKAZILDI

Yoshlar kuni munosabati bilan Yangiobod tumanida sport sohasi vakillari, murabbiylar hamda yosh sportchilar ishtirokida samimiy va mazmunli uchrashuv tashkil etildi. Tadbirda Yangiobod tumani hokimi Ibrohim Qarshiboyev, tuman prokurori Sh. Salimov hamda tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i J. Xojanov ishtirok etib, yoshlar bilan ochiq muloqot olib bordilar. Uchrashuv davomida bugungi kunda Yangiobod tumanida o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlarini o‘tkazayotgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi qizlar boks terma jamoasi bosh murabbiyi Maxset Jumaboyev hamda Jizzax viloyati qizlar boks murabbiyi, O‘zbekiston ixtixori, Jahon kubogi sohibi Lazizbek Zokirov boshchiligidagi bokschilar bilan yaqindan suhbatlashildi. Tadbirda sportchilarning erishayotgan yutuqlari, xalqaro va respublika miqyosidagi musobaqalardagi ishtiroki, ularning oldiga qo‘ygan ulkan maqsadlari hamda sport sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha istiqboldagi rejalar muhokama qilindi. Shuningdek, yoshlarning sportga bo‘lgan qiziqishini oshirish, iqtidorli



sportchilarni qo‘llab-quvvatlash, ularning mahoratini muntazam rivojlantirish va yangi iste‘dodlarni kashf etish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Muloqot jarayonida mamlakatimizda sport sohasiga qaratilayotgan e‘tibor, yaratilayotgan zamonaviy sport infratuzilmalari hamda yoshlar uchun mavjud imkoniyatlar haqida ham fikr almashildi. Tadbir ishtirokchilari tomonidan yoshlarni sog‘lom turmush tarziga jalb etish, ularni turli zararli illatlardan asrash va bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda sportning o‘rni beqiyos ekanligi ta‘kidlandi. Uchrashuv samimiy ruhda o‘tib, yosh sportchilar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga mutasaddilardan batafsil javob oldilar. Shuningdek, ular kelgusida yanada katta marralarni zabt etish, yurtimiz sporti ravnaqiga munosib hissa qo‘shish va xalqaro maydonlarda O‘zbekiston bayrog‘ini baland ko‘tarish yo‘lidagi intilishlari haqida so‘z yuritdilar. Tadbir yakunida sportchilar va murabbiylarga kelgusidagi nufuzli musobaqalarda omad va zafarlar tilanib, ularning mehnati va sa‘y-harakatlari yuksak e‘tirof etildi. Bildirilishicha, yosh avlodning jismonan sog‘lom, ma‘nan barkamol va Vatanga sadoqat ruhida kamol topishi yo‘lida bunday uchrashuvlar muntazam davom ettiriladi.

SARMICH MFYDA “AYOLLAR SPORT OLIMPIADASI”

Yangiobod tumani Sarmich MFYda xotin-qizlar faoli Ostonaqulova Nafisa tashabbusi bilan “Ayollar sport olimpiadasi” tashkil etildi. Mazkur tadbir xotin-qizlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish, ularning jismoniy faolligini oshirish, sportga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish hamda mahallada sog‘lom muhitni shakllantirishga qaratilgan muhim tashabbus sifatida alohida e‘tiborga loyiq bo‘ldi.



Tadbirda turli yosh toifasiga mansub xotin-qizlar faol ishtirok etib, o‘zlarining jismoniy tayyorgarligi, chaqqonligi va irodasini namoyon etdilar. Musobaqalar bir nechta sport yo‘nalishlari bo‘yicha tashkil etilib, har bir bellashuv o‘ziga xos qiziqarli va murosasiz ruhda kechdi. Ishtirokchilar har bir shartda bor imkoniyatlarini ishga solib, g‘alaba sari intildilar.

“Ayollar sport olimpiadasi” nafaqat sport musobaqasi, balki xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va faolligini yana bir bor namoyon etuvchi muhim ijtimoiy tadbirga aylandi. Unda qatnashgan ayollar o‘z salomatligi, jismoniy rivoji va faol turmush tarziga bo‘lgan e‘tiborini amalda ko‘rsatib, boshqalarga ham ijobiy o‘rnak bo‘ldilar.

Tadbir davomida hukm surgan ko‘tarinki kayfiyat, samimiy va do‘stona muhit, ishtirokchilar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va qo‘llab-quvvatlash barchaga katta taassurot qoldirdi. Har bir ishtirokchi o‘zining faolligi, qat‘iyati va sportga bo‘lgan mehrini namoyish etib, tadbirga alohida ruh bag‘ishladi.

Ayniqsa, mahalla miqyosida bunday sport tadbirlarining o‘tkazilishi xotin-qizlar o‘rtasida hamjihatlikni mustahkamlash, ularni bir maqsad yo‘lida birlashtirish hamda ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu orqali sog‘lom turmush tarzi nafaqat shaxsiy ehtiyoj, balki umumiy qadriyat sifatida shakllanib boradi.

Tadbir yakunida faol ishtirok etgan xotin-qizlar munosib rag‘batlantirilib, ularning sa‘y-harakatlari e‘tirof etildi. Bu esa kelgusida ham bunday sport tadbirlarida yanada faol ishtirok etish, o‘z ustida ishlash va yangi natijalarga erishish uchun kuchli motivatsiya bo‘lib xizmat qiladi.

Sarmich MFYda o‘tkazilgan “Ayollar sport olimpiadasi” xotin-qizlar salomatligini mustahkamlash, ularning jismoniy va ijtimoiy faolligini oshirish, sport orqali sog‘lom va baxtli hayot tarzini targ‘ib etishda muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Bu kabi tashabbuslarning izchil davom ettirilishi esa jamiyatda sog‘lom muhitni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

YANGIOBOD OVOZI

YANGIOBOD TUMAN HOKIMLIGI GAZETASI

MUASSIS: YANGIOBOD TUMAN HOKIMLIGI

Bosh muharrir: A. MUHAMMADIYEV

Gazeta Jizzax viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 06-041 raqami bilan ro‘yhatdan o‘tgan.

MANZILIMIZ: Yangiobod tumani, Yangiobod shaharchasi, Mustaqillik ko‘chasi 1-uy.

TAHRIR HAY‘ATI: Ibrohim QARSHIBOYEV Azizbek NISHIONOV Valijon XASANOV Beknazar TOSHOYEV Olimjon BEGMATOV Pozil HAMROYEV

TELEFON: +998 72 542-11-31

NASHR UCHUN MAS‘UL: A. MUHAMMADIYEV

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terilib, sahifalandi. Qog‘oz bichimi A-3. Gazeta «RASTR PLYUS PRINT» MCHJ da ofset usulida 200 nusxada chop etildi.

Korxona manzili: Jizzax shaxri, Sayiljoy ko‘chasi, 4-uy. Bosishga ruhsat etildi 8.06.2026-yil BUYURTMA №

# YANGIOBOD OVOZI

YANGIOBOD TUMANI HOKIMLIGINING IJTIMOY-SIYOSIY, MA‘RIFIY GAZETASI

| 7-son (67) 9-iyun 2026-yil, seshanba | Ijtimoiy-siyosiy, ma‘rifiy gazeta | Bahosi erkin narxda | Gazeta 2019-yil yanvardan chiqa boshladi |
|--------------------------------------|-----------------------------------|---------------------|------------------------------------------|
|--------------------------------------|-----------------------------------|---------------------|------------------------------------------|

YANGIOBOD TUMANIDA OIV INFEKSIYASI PROFILAKTIKASI: BUGUNGI KUN TALABI

So‘nggi yillarda Yangiobod tumanida OIV infeksiyasi kam uchrayotgan kasalliklardan biri sifatida qayd etib kelinayotgan edi. Biroq 2026 yilning 1-choragida jinsiy yo‘l orqali yuqgan 2 ta yangi holat aniqlanishi tuman epidemiologik vaziyatida muhim o‘zgarish borligini ko‘rsatdi. Endilikda Yangiobod tumani ham OIV tarqalish xavfi yuqori bo‘lgan hududlar qatoriga kirib bormoqda. Bu esa har bir fuqaroning hushyor bo‘lishini, o‘z salomatligiga mas‘uliyat bilan qarashini talab etadi.



OIV (odam immunitet tanqisligi virusi) inson organizmining himoya tizimini zaiflashtiradi. Agar vaqtda aniqlanmasa va davolanmasa, u OITS bosqichiga o‘tib, og‘ir asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin. Eng muhim jihati shundaki, OIV kundalik muloqot orqali yuqmaydi — u asosan betartib jinsiy

aloqa, qon orqali (masalan, steril bo‘lmagan ignalar orqali) va onadan bolaga yuqadi.

Bugungi kunda Yangiobod tumanida aniqlangan holatlarning jinsiy yo‘l bilan bog‘liq ekani profilaktika choralarini aynan shu yo‘nalishda kuchaytirishni talab etadi. Eng samarali himoya usullaridan biri — jinsiy hayot oila qurish bilan boshlanishi, oilaga sodiq bo‘lishdir.

Shuningdek, aholining OIV bo‘yicha muntazam tekshiruvdan o‘tishi juda muhim. Erta aniqlangan infeksiya nazorat ostida bo‘lishi va ARVT orqali bemor to‘liq hayot kechirishi mumkin. Zamonaviy tibbiyot OIV bilan yashayotgan insonlarga uzoq umr ko‘rish imkonini bermoqda. Shu sababli test topshirishdan qo‘rqmaslik, aksincha, bu o‘z salomatligiga bo‘lgan mas‘uliyat ekanini tushunish zarur.

Yana bir muhim jihat — jamiyatda OIV bilan yashovchi insonlarga nisbatan to‘g‘ri munosabatni shakllantirishdir. Ularni kamsitish yoki ajratish kasallikning yashirin tarqalishiga olib kelishi mumkin. Aksincha, tushunish va qo‘llab-quvvatlash muhitini yaratish profilaktika ishlarining samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, Yangiobod tumanida yuzaga kelgan yangi epidemiologik vaziyat har birimizni befarq bo‘lmaslikka undaydi. OIV infeksiyasining oldini olish — bu nafaqat tibbiyot xodimlarining, balki butun jamiyatning vazifasidir. O‘z salomatligingizni asrang, xavfsiz turmush tarziga amal qiling va zarur hollarda mutaxassislarga murojaat qilishdan tortinmang.

Sitora Begimqulova  
Jizzax viloyati OITS markazi mutaxassisi

KITOBXONLIK HAFTALIGIGA START BERILDI

Yangiobod tumanida ma‘naviy-ma‘rifiy hayotda muhim o‘rin tutuvchi, kitobxonlik madaniyatini keng targ‘ib etishga qaratilgan yirik tadbir — “Kitobsevar millat” shiori ostidagi VI Respublika kitobxonlik haftaligiga tantanali ravishda start berildi. Ushbu haftalik yurtimizda kitobga bo‘lgan mehrni yanada oshirish, ayniqsa yoshlar o‘rtasida mutolaa madaniyatini rivojlantirish, ularni bilim va tafakkurga yo‘naltirish maqsadida tashkil etildi.



Mazkur tadbirda Xalq deputatlari Yangiobod tumani Kengashi raisi X. Tilakov, tuman hokimi o‘rinbosari A. Nishonov, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi B. Toshboyev hamda

boshqa faol jamoatchilik vakillari, soha mutaxassislari va eng muhimi, kitobsevar o‘quvchi-yoshlar faol ishtirok etdilar. Tadbir ishtirokchilari tomonidan kitobning inson hayotidagi beqiyos o‘rni, uning tafakkur va dunyoqarashni

shakllantirishdagi ahamiyati alohida ta‘kidlab o‘tildi.

Yangiobod tumani axborot-kutubxona markazi tomonidan yuqori saviyada tashkil etilgan ushbu haftalikning ochilish marosimi ko‘tarinki ruhda, mazmunli chiqishlar va qiziqarli dasturlar bilan boyitildi. Tadbir davomida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish, yoshlar orasida mutolaa madaniyatini mustahkamlash, ularni badiiy va ilmiy adabiyotlarga oshno etish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Shuningdek, haftalik doirasida turli ma‘naviy-ma‘rifiy uchrashuvlar, adabiy kechalar, kitob ko‘rgazmalari, ijodiy suhbatlar va tanlovlar o‘tkazilishi rejalashtirilgani alohida qayd etildi. Bu kabi tadbirlar yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni zararli odatlardan yiroq tutish hamda kitobga mehr uyg‘otishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbirda so‘zga chiqqanlar bugungi kunda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanini ta‘kidlab, har bir oila va ta‘lim muassasasida kitob mutolaaiga alohida e‘tibor qaratish zarurligini qayd etdilar. Zero, kitob — insonni komillikka yetaklovchi, uning ma‘naviy olamini boyituvchi eng muhim manbadir.

Kitobxonlik haftaligi nafaqat o‘quvchi-yoshlar, balki keng jamoatchilikni ham qamrab olishi, har bir inson qalbida kitobga bo‘lgan mehrni yanada mustahkamlashi bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, yosh avlodni intellektual jihatdan barkamol etib tarbiyalashda bunday tashabbuslarning o‘rni beqiyosdir.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik holatlarining oldini olish borasida ko'plab ishlar amalga oshirib kelinmoqda, biroq shunday bo'lsada ayrim erkaklarimizning bugungi kunda ham o'z jufti halollariga nisbatan ko'pol muamolada bo'lishi, ularni tahqirlash, zo'rlik ishlatish holatlari uchrab turibdi. Ana shunday zo'rvonlik, turmush o'rtog'qlari tomonidan ularga nisbatan tazyiqlari o'tkazilishining oldini olish borasida ichki ishlar bo'limi tomonidan jabrdiyda ayollarimizga himoya orderlari olib berilishiga qaramasdan bu holatlarning uchrab turishligi kishini hayratga soladi. Bugungi kunda mamlakatimizda gender tenglik degan tushunchalarni fuqarolarimiz o'rtasida keng tag'ib qilish ularni amalda qo'llash borasida ham bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Chunki ko'pgina xotin-qizlarimiz bugungi kunda o'zlarining haq-huquqlarini bilmassliklari, qonunlar bilan tanish emasligi oqibatida mana shunday holatlarning qurboniga aylanib qolayotganligi hech kimga sir emasligi ma'lum. Bugungi kunda ana shunday holatlarni aniqlash hamda ularga chek qo'yishning umumiy chora-tadbirlariga xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikning oldini olish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish, tazyiq va zo'rvonlikning sabablari hamda shart-sharoitlari bo'lgan omillarni tahlil qilish, o'rganish va baholash, aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot olib borish, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik hollarining statistik hisobi va hisobotini yuritish hamda ularni davlat statistika organlariga taqdim etish, fuqarolarni, ayniqsa xotin-qizlarni o'z huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari to'g'risidagi, shuningdek himoya qilish kafolatlari haqidagi axborot bilan ta'minlash maqsadida ishlar olib borilmoqda.

sentyabrda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo’ravonlikdan himoya qilish to’g’risida”gi O’RQ-561-sonli qonuni qabul qilingan.

Jumladan, Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik holatlarining oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga chek qo'yishning umumiy chora-tadbirlari quyidagilardan iborat,

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikning oldini olish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

tazyiq va zo'ravonlikning sabablari hamda shart-sharoitlari bo'lgan omillarni tahlil qilish, o'rganish va baholash;

aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot olib borish;

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik hollarining statistik hisobi va hisobotini yuritish hamda ularni davlat statistika organlariga taqdim etish;

fuqarolarni, ayniqsa xotin-qizlarni o'z huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari to'g'risidagi, shuningdek himoya qilish kafolatlari haqidagi axborot bilan ta'minlash maqsadida axborot-ma'rifiy faoliyatni amalga oshirish;

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik holatlarini aniqlashning samarali huquqiy mexanizmlarini joriy etish;

tazyiq va zo'ravonlik sodir etish xavfi bo'lgan guruhlarga mansub shaxslarga yoki ularni sodir etgan shaxslarga nisbatan oldini olish choralarini amalga oshirish;

tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatishga va ularni himoya qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish;

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarga nisbatan ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash;

aybdorlarni qonunda belgilangan javobgarlikka tortish ekanligi aytib o'tildi.

**Fuqarolik ishlari bo'yicha Zarbdor tumanlararo sudining raisi O.Egamberdiev va sudyasi A.Pulatovlar**

## BOQUVCHISINI YO'QOTGAN AYOLLARGA QANDAY IMTIYOZLAR BOR?

Boquvchisini yo'qotgan ayollarga bir qator imtiyozlar mavjud:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.03.2022 yildagi PF-87-son Farmoni 17-bandiga muvofiq, boquvchisini yo'qotgan xotin-qizlarning:

farzandlari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga to'lanadigan ota-onalar badalidan ozod qiladi.

undan ortiq o'ng olti yoshga to'lmagan bolalari bor hamda boquvchisini yuqotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklarning soliq solishdan qisman ya'ni daromadlar qaysi oyda olingan bo'lsa, o'sha oyda har bir oy uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdoridagi daromadlari daromad solig'idan ozod qilinadi.

3. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-oktabrdagi 654-son qaroriga 1-ilova bilan tasdiqlangan “Kam ta’minlangan oilalarni “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimi orqali aniqlash, ularga kam ta’minlangan oilalar bolalari uchun nafaqa va moddiy yordam tayinlash va to’lash tartibi to’g’risida”gi nizom boquvchisini yo’qotgan ayollar ushbu nizom talablariga javob berganda moddiy yordam yoki bola puli olishi mumkin bo’ladi.

4. Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonun 19-moddasiga asosan vafot etgan boquvchining qaramog'ida (20-modd) bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi.

Bunda ota, ona, o'gay ota, o'gay ona, xotin, er, bosharti, ular 7-moddada nazarda tutilgan pensiya yoshiga to'lgan (ayollarda 55 yosh) yoki nogironligi bo'lgan shaxs bo'lsalar oilaning mehnatga qobiliyatsiz a'zolari hisoblanadilar.

**JAXONGIR ABDUXALIKOV**  
**Yagiobod tuman adliya bo'limi boshlig'i**

## Yoshlar kuni munosabati bilan yosh tadbirkor faoliyati o‘rganildi

Yoshlar kuni munosabati bilan Yangiobod tumani hokimi  
Ibrohim Qarshiboyev, tuman prokurori Sh. Salimov hamda  
tuman IIB boshlig'i J. Xojanovlar "YANGI OBOD CITY 777"



MChJ rahbari, yosh tadbirkor M. Usmonaliyev tomonidan tashkil etilgan “City Stroy” qurilish mollari ishlab chiqarish obyektida bo‘ldilar.

## O'rganish jarayonida mas'ullar korxonada shlakoblok

ishlab chiqarish jarayoni, tayyor mahsulotlarning sifati hamda qurilish mollari savdosining bugungi holati bilan yaqindan tanishdilar. Shuningdek, korxonaning ishlab chiqarish quvvati, yaratilgan ish o'rinlari va faoliyatni yanada kengaytirish istiqbollari yuzasidan fikr almashildi.

Muloqot davomida yosh tadbirkor tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar, ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda aholini sifatli qurilish materiallari bilan ta'minlash borasidagi rejalarni muhokama qilindi.

Shuningdek, tadbirkor tashabbusi bilan barpo etilayotgan suv havzasida olib borilayotgan qurilish ishlari ham ko'zdan kechirildi. Mazkur loyiha hudud infratuzilmasini rivojlantirish, aholi va tashrif buyuruvchilar uchun qulay sharoitlar yaratishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Ta'kidlanganidek, yosh tadbirkorlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularning biznes loyihalarini rivojlantirish va bandlikni ta'minlash Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biridir.

Mazkur korxona faoliyati va amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari hududda tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda mahalliy ishlab chiqarish hajmini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**FUQAROLAR VA TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINING UY-JOY BILAN BOG'LIQ  
MULK HUQUQI KAFOLATLANISHI TA'MINLANGAN**

Ma'lumki, so'nggi yillarda shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish, aholiga munosib turmush sharoitini yaratish, hududlarni kompleks rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari va investitsiya loyihalarining samarali amalga oshirilishi doirasida fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlariga tegishli bo'lgan bino va inshootlarni joylashgan yer uchastkalari olib qo'yilishi munosabati bilan

maydonining ijtimoiy normasidan kam bo'lgan sahndagi, barcha qulayliklari bo'lgan, avvalgisiga teng qimmatli boshqa turar joy mulk qilib beriladi hamda dov-daraxtlarning bozor qiymati to'lanadi yoxud buzilayotgan uy (kvartira), boshqa imoratlar, inshootlar va dov-daraxtlarning bozor qiymati, shuningdek yer uchastkasiga bo'lgan huquqning bozor qiymati to'liq hajmda to'lanadi. Buzilayotgan uyning (kvartiraning) yoki yer uchastkasiga bo'lgan huquqning bozor qiymati berilayotgan uy-joyning yoki yer uchastkasiga bo'lgan huquqning bozor qiymatidan ortiq bo'lgan taqdirda, bu farq mulkdorga kompensatsiya qilinishi lozim. Berilayotgan uy-joyning yoki yer uchastkasiga bo'lgan huquqning bozor qiymati buzilayotgan uyning (kvartiraning) yoki yer uchastkasiga bo'lgan huquqning bozor qiymatidan ortiq bo'lgan taqdirda esa, ushbu farq mulkdor tomonidan qaytarilishi talab etilmasligi belgilanganligini ko'rishimiz mumkin.

Jumladan mazkur kafolatlar O'zbekiston Respublikasining, "Er uchastkalarining kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 avgustdagi "Fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlarining mulk huquqi kafolatlanishini so'zsi- ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 5491-sonli Farmoyishi hamda Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 27 dekabrda "Davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo'yicha markazlashtirilgan jamg'armalar mablag'larini shakllantirish va ularidan foydalanish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi 1047-son qaroriga muvofiq ravishda ta'minlash mexanizimi yaratildi.

Albatta, bunda muhtaram Prezidentimizning “Xalq roz bo’lsa, ishimizda unum va baraka bo’ladi” - degan tamoiini hayotga tatbiq etib, qonunchiligimizda fuqarolarning huquq va manfaatlarini kafolatlovchi normalar aks ettirilishidagi mehnatlar diqqatga sazovordir.

**Shoxnur To‘lqin o‘g‘li Cho‘liboyev**  
**Fuqarolik ishlari bo‘yicha Zarbdor tumanlararo sudining**  
**devonxona mudiri**

## BOQUVCHISINI YO'QOTGAN AYOLLARGA QANDAY IMTIYOZLAR BOR?

**NAFAQA TAYINLANISHI**  
Boquvchisini yoʻqtan ayollarga pensiya yoki (ilmoj) nafaga tayinlanadi.

**UY-JOY IMTIYOZLARI**  
Iy-joyga muhtoj ayollarga navbatdan tashqari yoki imtiyozli asosda uy-joy ajratilishi mumkin.

**TALIM IMTIYOZLARI**  
Oʻz farzandlar uchun maktab, kollej va oliy taʼlimda imtiyoz, shuningdek, kontrakt toʻlovicha cheklangan.

**TIBBIY YORDAM**  
Bepul tibbiy xizmatlardan yoki davol vositalarini imtiyozli asosda olish huquqi.

**ISHGA JOYLASHISH**  
Ishga joylashishda koʻmaklashish, zarfaga oʻqitish va darja tayyovlash kurslarida imtiyozlar.



**!** Muhtoj ayollarning qonunchilik va mahalliy hokimiyat qarorlariga imtiyozli taqdim etiladi.

**SOLIQ VA BOSHQA YENGILLIKLAR**  
Soliq imtiyozlari yoki mulk solig'i, yer solig'i bo'yicha yengilliklar berilishi mumkin.

**TRANSPORT IMTIYOZLARI**  
Jamot transportida imtiyozli yoki bepul yurish huquqi berilishi mumkin.

**BOLALI AYOLLARGA O'QILAB-YUVATILASH**  
Farzandlarga nafaca, moddiy yordam va boshqa turdagi yordamlar.

**MODDIY YORDAM**  
Mahallia, xayriya fondlari yoki davlat tomonidan moddiy yordam ko'rsatilishi mumkin.

**HUQUQIY YORDAM**  
Yordam berish maqsadida va huquqiy yordam olish huquqi.

**!** Imtiyozlardan foydalanish uchun:

- Ariza bilan mahallaga yoki (ilmoj) himoya organigara murojaat qilish
- Kerakli hujjatlarini taqdim etish (oʻtm toʻv riyadiga guvohnoma va boshqalar)
- Imtiyozlar kuz ishtiroj holatidagiga qarab belgilanadi